TANQIDIY FIKRLASH IMKONIYATLARI

Arofat Isakova Maxkamovna
Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi
Olga Shatunova
Qozon federal unuversiteti Elabuga instituti
Pedagogika kafedrasi mudiri p.f.n., dotsent
Mahmudova Muslima Mutalibxon qizi
Qo`qon davlat pedagogika instituti 202- PPtalabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.8108596

Annotatsiya: Mazkur maqolada tanqidiy fikrlash mazmuni va imkoniyatlari yoritilgan.
Kalit so`zlar: tanqidiy fikrlash, xulosa,analiz,muammo, raqib, vaziyat

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi [1]. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta’riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu - o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me’yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm [2] va sotsosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grekcha fikrlashning “tanqidiy” shakli sifatida yuritiladi.

Tanqidiy fikrlash ko'p qirraliligi tufayli ko'plab vaziyatlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan qobiliyatdir, ammo aynan u foydali bo'lgan vaziyatlar va kontekstlarning kengligi tufayli atamaning universal ta'rifi yo'q.

Tanqidiy fikrlash - bu ishonchli va oqilona fikrlarni ishlab chiqish. Tanqidiy fikrlash mantiq va ilm-fan vositalarini qo'llaydi. Tanqidiy fikrlash – narsalar va hodisalarni analiz qilib asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar sistemasi bo‘lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya’ni u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir. Demak tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri.

Quyida ta`lim oluvchilarni tanqidiy, noan`anaviy fikrlashga o`rgatish usullaridan misol tariqasida keltiramiz:

"Codenames: kod nomlari".

O’yinchilar ikkita jamoaga bo’lingan holda ularning oldida 25 ta tasodifiy so’zlardan iborat bo’lgan va ma’lum mezonlarga muvofiq birlashtirilgan kartalar qo’yiladi. Har bir so’z boshqa jamoaning maxfiy agentiga, oddiy fuqaroga yoki qotilga to’g’ri keladi. Kapitan o’yinchilarga maslahat beradi - bitta so’z va ushbu so’z (belgi) bilan birlashtirilgan kartalar soni. O’yinchilar kartani maxfiy agent degan ma’noni anglatuvchi so’z bilan ajratish uchun maslahat olishlari kerak. O’yinning maqsadi - raqib jamoaning barcha agentlarini taxmin orqali topish.

"Chegarani buzib o’tish"

Muammoni cheksiz resurslar va imkoniyatlar bilan hal qilishingiz kerakligini tasavvur qiling. Ushbu holatni hisobga olgan holda yechim variantlarini ishlab chiqing va keyin ularni resurslar cheklangan vaziyatga o’tkazing va variantlardan qaysi biri bu holatda to’liq yoki qisman qo’llanilishi haqida o’ylang.

"Qo’llash tartibi"

Taroq yoki sharikli ruchka kabi har qanday buyumni oling va undan foydalanishning 100 xil usulini o'ylab ko'ring.

"Tasodifiy so'z"

Tasodifiy muammoli vaziyat yarating va uni kitobdan tanlangan biron bir tasodifiy so'z bilan bog'lashga harakat qiling.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ma`lum faoliyatga doir savollardan foydalanish imkoniyati ham mavjud. Bu sohalar matematika, ingliz tili, sa`nat, ijtimoiy tadqiqotlar yuzasidan tanqidiy fikrlash savollari bo`lishi mumkin. Bu savollar ta`lim oluvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va borliqqa boshqa nuqtadan qarashiga ko'mak beradi. Shuningdek, bu turdagi savollar ta`lim oluvchilarning tasavvurini kengaytirish va ich-ichidagi savollarga javob qidirishga undaydi. Quyida shunday savollardan keltiramiz:

1. Matematikaga oid tanqidiy fikrlash savollari:
- Dunyoni yanada yaxshilash uchun matematikadan qanday foydalanishimiz mumkin?
- Matematika jamiyatimizga qanday foyda keltirdi?
- Qachon va qanday qilib matematika butun dunyo tarixida muhim rol o'ynagan?
2. Ingliz tili yuzasidan tanqidiy fikrlash savollari:
- Sizningcha, nega insonlar va millatlar o'z tajribalari va ko'rgan-kechirganlari haqida hikoya qilishni yaxshi ko'rishadi?
- Asarlarni qanday xususiyatlariga ko'ra "yaxshi" va "yomon" ga ajratasiz?
- Qanday qilib o'z so'zlashuv uslubingizni yaratasiz? Uni boshqa biror kishiga qanday qilib o'rgatgan bo'lardingiz?
3. San'at borasida tanqidiy fikrlash savollari:
- "San'at" o'zi nima? Nima uchun millatlar san'at rivojiga alohida e'tibor qaratishadi?
- Rassom tomoshabin va xaridor oldida qanday majburiyatlarga ega?
- Tomoshabin va xaridorlarning san'atkor oldida biror majburiyati bormi? Agar shunday bo'lsa, u(lar) nima(lardan iborat)?
4. Ijtimoiy tadqiqotlar yuzasidan tanqidiy fikrlash savollari
- Hukumat tuzilmalarining tutgan o'rni, ahamiyati qanday bo'lishi kerak?
- Insoniyatning asosiy va umumiy maqsadi nima bo'lishi kerak? Nega?
- Nima deb o'ylaysiz, texnologiya rivoji ta'lim sohasiga ijobiy ta'sir etdimi yoki salbiy? Agar qo'lingizdan kelganida bu boradagi qaysi jihatni o'zgartirgan bo'lardingiz? Qanday qilib?

Demak, bu kabi savollar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlardir.

Xulosa o`rnida tanqidiy fikrlashni shakllantirish borasida nimani yodda tutish kerakligini ta`kidlamoqchimiz:

– Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, har qanday masala bo'yicha o'z fikringizni shakllantirish va unga muvofiq harakat qilishda yordam beradigan muhim ko'nikma.

– Tanqidiy fikrlash o'quv va ish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga, qaror qabul qilishga va axborot oqimida harakat qilishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun dunyoqarashingizni kengaytirishga intiling va turli mavzular va hodisalar haqida ko'proq biling, savollar berishni, matnni tahlil qilishni va turli xil stsenariylarni ishlab chiqishni o'rganing. O'yinlar, jumboqlar va maxsus mashqlar yordamida mantiqingizni, e'tiboringizni va tasavvuringizni boyiting.

References:

1. Edward M. Glaser. „Defining Critical Thinking“. The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community. Qaraldi: 22-mart 2017-yil.
2. Piaget's Stages of Cognitive Development“. 9-may 2019-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 3-aprel 2018-yil.
3. Source: https://sinaps.uz/maqola/4055/
4. Isakova Arofat Makhkamovna. PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS OF THE TEACHER'S CREATIVE APPROACH TO THE EDUCATIONAL PROCESS. BioGecko Vol 12 Issue 03 2023 ISSN NO: 2230-5807
5. 5096. A Journal for New Zealand Herpetology